

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

**2025 Vol. 4**

**tsuull.uz  
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

2025 Vol. 4

[tsuull.uz](http://tsuull.uz)

[goldenscripts.tsuull.uz](http://goldenscripts.tsuull.uz)

**BOSH MUHARRIR**

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR  
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

**MAS'UL KOTIB**

Ozoda Tojiboyeva

**TAHRIR HAY'ATI**

Karl Rayxl (Germaniya)  
 Isa Habibeyli (Ozarbayjon)  
 Seyhan Tanju (Turkiya)  
 Almaz Ulvi (Ozarbayjon)  
 Benedek Peri (Vengriya)  
 Vahit Turk (Turkiya)  
 Teymur Kerimli (Ozarbayjon)  
 Eunkyung Oh (Koreya)  
 Nazef Shahrani (AQSh)  
 Boqijon To'xliyev  
 Muhammadjon Imomnazarov  
 Bilol Yujel (Turkiya)  
 Qosimjon Sodiqov  
 Zulxumor Xolmanova  
 Mustafa O'ner (Turkiya)  
 Nurboy Jabborov  
 G'aybulla Boboyorov  
 Kimura Satoru (Yaponiya)  
 Imran Ay (Turkiya)  
 Aftondil Erkinov  
 Nadir Mamadli (Ozarbayjon)  
 Rashid Zohidov  
 Otabek Jo'raboyev  
 Bulent Bayram (Turkiya)  
 Qo'ldosh Pardayev  
 Nodirbek Jo'raqo'ziyev  
 Oysara Madaliyeva  
 Hilola Nazirova

**MUNDARIJA****MATNSHUNOSLIK****Bahriddin Umurzoqov**Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning voizlik,  
xattotlik va kotiblik faoliyati

4

**ADABIYOTSHUNOSLIK****Dilnavoz Yusupova**Fanoyi Sheroziy "Tarixi muluki Ajam"  
asarining usmonli tarjimoni sifatida

16

**Marg'uba Abdullayeva**"Maqsad ul-atvor" dostoni va uning g'oyaviy-  
badiiy xususiyatlari

29

**LINGVISTIKA****Tanju Seyhan**

Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri

42

**To'lqin Tog'ayev**Ashurali Zohiriy – jadid matbuotining  
atoqli vakili

63

**Ma'rufjon Dustmurodov**Uyg'ur xoqonligiga oid Qarabalg'asun  
II bitigi: leksik birliklarning badiiy  
funksiyasi

76

**MATN****Aftondil Erkinov**"Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy" dagi  
"Ohista-ohista" radifli g'azallar

140

**EDITOR IN CHIEF**

Shuhrat Sirojiddinov

**DEPUTY EDITOR IN CHIEF**

Karomat Mullakhojaeva

**EXECUTIVE SECRETARY**

Ozoda Tojibaeva

**EDITORIAL BOARD**

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

**CONTENTS****TEXTOLGY****Bahriddin Umurzoqov**

Ali Safi Kashifi Hiravi's Activities as a Preacher, Calligrapher, and Scribe 4

**LITERATURE****Dilnavoz Yusupova**

Fanoyi Shirazi as the Ottoman Translator of Tarih-i Muluk-i Ajam 16

**Marguba Abdullaeva**

The Epic "Maqsad ul-Atvor" and its Ideological and Artistic Characteristics 29

**LINGUISTICS****Tanju Seyhan**

The Function of Verbs in the Stylistic Framework of Ali Shir Navai 42

**Tulkin Togaev**Ashurali Zohiri is a Prominent Representative of the *Jadid* Press 63**Ma'rufjon Dustmurodov**

Karabalgasun II Inscription of the Uygur Khaganate: literary Function of Lexical Units 76

**TEXT****Aftondil Erkinov**

Ghazals with the refrain "Ohishta-ohishta" in "Majmuat ush-shuarayi Firuzshahi" 140

## Uyg'ur xoqonligiga oid Qarabalg'asun II bitigi: leksik birliklarning badiiy funksiyasi

Ma'rufjon Dustmurodov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Ushbu maqolada Uyg'ur xoqonligi davrida yaratilgan Ikkinchi Qarabalg'asun bitigining tarixiy, lingvistik va adabiy qimmatini tahlil qilinadi. Yodgorlikning topilgan joyi, yozuv tizimi, tili va janriy xususiyatlari bilan bir qatorda, asosiy e'tibor matnda voqeliklarni o'zaro zidlantirish – antiteza usuli orqali ifoda etilgan, mohiyatan she'riy shaklga yaqin jumlagi qaratiladi. Maqolada bitigda aks etgan davlatchilik, xalqni himoya qilish va axloqiy g'oyalar, shuningdek, Insonning tug'ilish – umr – o'limga bo'lgan munosabatining badiiy vositalari yordamida ta'sirchan tarzda ifodalanishi ilmiy jihatdan talqin etiladi. Bundan tashqari, yodgorlikning qadimgi uyg'ur-turk tili leksikasi hamda gap tarkibini o'rganishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** *turk-runik yozuvi, Uyg'ur xoqonligi, Qarabalg'asun II bitigi, epitafiya, saj' (nasrdagi qofiya), antiteza, qadimgi turkiy til.*

### Kirish

Hozirgacha turkiylarning ilk o'rta asrlar tarixiga tegishli bir necha yuzlab bitigtoshlari aniqlangan. Ulardan Turk (552 – 744) va Uyg'ur (744 – 840) xoqonliklariga tegishli matnlarda odatda nazmiy parchalar ko'zga tashlanmaydi. Lekin bulardan Qarabalg'asun II bitigi matnida qadimgi turkiy adabiyotga tegishli lirik parchalar izlanadi. Darhaqiqat, mazkur davr yodnomalari faqat nasriy shaklda bitilganda ham, ular adabiy qimmatini yo'qotmagan bo'lar edi, lekin ushbu adabiy yodgorliklar matnida nazmiy parchalarning uchrashi ularning qimmatini yanada oshiradi, albatta. Aytish kerakki, O'tukan Uyg'ur xoqonligi bitiglarining shakl va uslubi U. Sertkaya [Sertkaya 1999, 233–240], A.Gaben [Gabain 1956, 537–556] va boshqa turkologlar tomonidan bilvosita o'rganilgan. O'tukan Uyg'ur xoqonligi bitiglari she'riy shaklning spetsifik xususiyatlari nuqtayi

---

<sup>1</sup> *Dustmurodov Ma'rufjon Mansur o'g'li* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.

**E-mail:** maruf\_dust@mail.ru

**ORCID:** 0009-0003-4954-9504

**Iqtibos uchun:** Dustmurodov, M. M. 2025. "Uyg'ur xoqonligiga oid Qarabalg'asun II bitigi: leksik birliklarning badiiy funksiyasi". *Oltin bitiglar* 4: 76 – 98.

nazaridan o'rganilganda, Tesiyn, Tariat, Qari Chor Tigin, Shine Usu, Suujiyn, Arxanan, Xoyt Tamir (Tayhar Chuluu) va Gurvaljin Uul bitiglarida she'riyatdan ko'ra nasrning qat'iyliigi ko'zga tashlanadi. "Biroq, Qarabalg'asun II bitigi tuzilishi jihatidan o'ziga xosdir, chunki ba'zi qatorlar boshqalariga qaraganda she'riy shaklga ancha yaqin. Qarabalg'asun I va Sevrey bitiglarining turkcha qismlarini to'la o'qib bo'lmagani uchun, bu bitiglar bo'yicha hech qanday baho berish mumkin emas" [Gürgün Hasan 2025, 257 – 283]. Aytish kerakki, biz e'tibor qaratmoqchi bo'lgan bitig o'sha davrdagi matnlardan "aralash – nasr-nazm" shaklida ekanligi, ya'ni nasriy matn ichida she'riy shaklga ega parcha mavjudligi bilan farqlanadi.

Yodgorlik Arxangay viloyatining O'rxun Xo'tont tomonidan g'arbda joylashgan O'rdubaliq shahridan 8 km shimolda, Jarantayn daryosi bo'yida topilgan. Bitigtosh rangli granitdan yasalgan bo'lib, 12 qatorli yozuvda 103ta belgi mavjud. Yodgorlikda ikkita tamg'a (belgi) o'yilgan. Bitigtoshni 1973-yili S. Myagmarjav kashf etgan va 1975-yili sovet-mo'g'ul ekspeditsiyasi tomonidan Mo'g'uliston Fanlar akademiyasi Tarix instituti laboratoriyasiga topshirilgan. Yodgorlik bo'yicha ilk tilshunoslik tadqiqotini mo'g'ul olimi M. Shinehuu olib borgan. Shuningdek, yodnoma bo'yicha asosiy tadqiqotlar R. Alimov, T. Osava, M. Shinehuu, B. O'zundar, O. Hansen, T. Moriyasu, T. Yoshida, A. Katayama, L. Bold va D. Tseveyendorj, L. Bold, U. Sertkaya, U. Mert, G. Shlegel, N. Bazilhan va M. O'lmaz tomonidan olib borilgan. Ulardan B. O'zundar va M. O'lmaz o'z tadqiqotlarida M. Shinehuu nusxasidan asos sifatida foydalanganlar, N. Bazilhan esa bitigni o'z nusxasi bo'yicha o'qigan. Ushbu tadqiqot 1996-yili avgust oyida T. Osava tomonidan tayyorlangan bitigning muhriga asoslangan. Qarabalg'asun II bitigidagi belgilarning O'tukan Uyg'ur matnlariga xosligi, xususan, uning 795-yili yaratilgan Qari Chor Tigin yodgorligidagi belgilar bilan stilistik yaqinligi hisobga olinsa [Alimov Rysbek 2015, 29], hech shubhasiz, bu bitigni VIII asrga oid deb hisoblash imkonini beradi.

### **Qarabalg'asun II bitigining adabiy va lingvistik xususiyatlari**

Ushbu tadqiqot Qarabalg'asun II bitigining adabiy va lingvistik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan va bir nechta ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Manbashunoslik (tekstologik) va lingvistik nuqtayi nazaridan tadqiqotning asosiy manbasi sifatida Qarabalg'asun II bitigining nashr etilgan matnlari, faksimile nusxalari va ularga oid ilmiy izohlar qiyosiy o'rganiladi.

Leksik-semantik va morfologik tahlil orqali bitigtosh misolida uyg'ur-turk tilining leksik, morfologik xususiyatlari va uslubiy belgilarini aniqlanadi. Qiyosiy-tarixiy metod orqali bitig matnidagi nazmiy parcha tahlil qilinib, anonim muallif tafakkuri misolida o'sha davr turkiy dunyo kishisining tug'ilish – umr – o'lim haqidagi falsafiy qarashlari o'rganiladi. Tadqiqot metodologiyasi kompleks, interdissiplinar yondashuvga tayanadi va Qarabalg'asun II bitigini tarixiy, tilshunoslik, madaniy va mushohadaviy nuqtayi nazardan ko'p qirrali tadqiq etish imkonini beradi.

Bitigtosh matnidagi badiiy mazmuni vujudga keltirgan lingvistik vositalar tahliliga kirishishdan avval yodnomaning to'liq matni, tabdili va uning leksikasini o'rganish zarur.

Matn (transliteratsiya va tabdil):

- 1) *qunč[(u)y]*<sup>1</sup> – qunchuy (aqunchi?);
- 2) *buyuruqi : ärtim* – buyuruqi (vazir) edim;
- 3) *öñt(ä)n(i)g : tïd(a)r* – oldindan qo'riqlar;
- 4) *ärtim: käd(i)n(i)g* – edim ortni;
- 5) *it(i) (ä)rür: (ä)rt(i)m* – tartibga keltirar edim;
- 6) *kök: t(ä)ñiridä* – ko'k osmonda;
- 7) *qut(u)m: yuyqa* – qutum yuqa;
- 8) *boltï : ya(γ)iz* – bo'ldi yag'iz (qaro) ;
- 9) *y(ä)rdä: yolim* – yerda yo'lim (safarim) ;
- 10) *qišya : boltï* – qisqa bo'ldi;
- 11) *tägmišä : boltï* – (o'lim) tegadigan bo'ldi;
- 12) *buqa: oyul(i)m (a)tï* – buqa o'g'limning otidir.

Bitigtosh matnida ohang va fikr tugalligi chegaralarini oydinlashtirish uchun uni lingvistik va adabiy jihatdan (mavjud tadqiqotlardagi kabi) quyidagi holatda qayta transformatsiya qilish mumkin:

(1-2) *qunčuy buyuruqi : ärtim* – qunchuy (aqunchi?) buyuruqi edim;

(3-4) *öñtäniğ : tïdar ärtim:* – oldindan qo'riqlar edim;

(4-5) *kädiniğ iti ärür: ärtim* – ortni tartibga keltirar edim;

(6-7-8) *kök: täñiridä qutum: yuyqa boltï:* – ko'k osmonda qutum yuqa bo'ldiv

(8-9-10) *yayiz yärdä: yolim qišya : boltï* – yag'iz (qaro) yerda yo'lim (safarim) qisqa bo'ldi;

(11) *tägmišä : boltï* – (o'lim) tegadigan bo'ldiv

(12) *buqa: oyulim atï* – buqa o'g'limning otidir.

Matndagi badiiy ahamiyatga molik o'rindagi muallifning ijodiy

<sup>1</sup> Ushbu so'zning o'qilishida turlichalik mavjud. Biz *qunč[(u)y]* deb oldik.

niyatini anglash uchun umumiy matndagi leksemalar semantikasiga nazar tashlash kerak bo'ladi.

### **Bitigtosh matnidagi leksik birliklarning semantik-funksional xususiyatlari**

**Qunčuy** Bitiglarda xoqon yoki xon xonadoniga mansub oliynasab qiz yoki ayolni anglatgan *qunčuy* so'zi xitoycha *gong zhu* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "imperatorning qizi, malika" degan ma'noni anglatishi qayd etiladi [DTS 1969, 466; Ölmez 1999, 59; Li 2017, 356]. Manbalarga ko'ra, *qunčuy* so'zi dastlab Xitoy imperiyasi tomonidan turk xoqonlari yoki tiginlarga (siyosiy maqsadlarda) xotin sifatida yuborilgan qizlarni nazarda tutish uchun ishlatilgan, keyinchalik mazkur xonimlar davlat ishlarida ham faollik ko'rsatgach, xoqon xonadoniga mansub rasmiy vakolatga ega xotinni nazarda tutish uchun qo'llanilgan [Clouston 1972, 635]. Shuningdek, u turk jamiyatida "oliyjanob insonning turmush o'rtog'i" [Кормушин 2008] sifatida bilingan. Qoraxoniylar davri hujjatlarida u "sayyida xotin: xonimdan bir daraja pastroq ayol" sifatida ko'zga tashlanadi [DLT III, 258]. O'rxun bitigtoshlarida asosan "malika" [KT 20; BX 16 va b.], Yenisey manbalarida esa "xotin" degan ma'nonlarda ko'zga tashlangan (Y/27, Y/25, Y/65 va b.) bu so'z Uyg'ur davriga oid Arxanan bitigida har ikki ma'noda – "xotin" va "malika" ma'nolarida istifoda etiladi. Aytish lozimki, ko'kturk davri bitiglarida [KT 20, 9; BK 17, 3]  $\text{𐰽𐰺𐰸}$  imlosi uchraydi, Arxanan, Tayhar Chuluu 3/1 va Yenisey matnlarida esa  $\text{𐰽𐰺𐰸}$ , "𐰽 - q" o'rniga "𐰽 - k" harfi ishlatilgan. *qunčuy*'ning (T. Barfieldga tegishli) Turkiy xoqonliklardagi hukumat harbiy-idoraviy unvonlarining uch pog'onali tasnifida [Барфилд 2009, 18 – 19] birinchi, ya'ni (1) imperiyaviy hokimiyat va saroy amaldorlari qatlamida (*qayan* – "oliy hukmdor", *yabyu/yabyu-qayan* – "xoqon/qanot boshqaruvchisi", *qan* – "ulus yetakchisi: hukmdor", *šad* – "ulus boshlig'i, xoqonzoda", *šadapit* – "qanotlardagi harbiy amaldor", *tägin* – "xoqonzoda; vakil") sanalishi uning saroy ichi va tashqarisida ham bir qancha vakolatlarga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Bu esa Qarabalg'asun II bitigi ilk misrasidagi kabi *buyuruq* – "vazir (darajasida)" lavozimidagi shaxsning *qunčuy* – "malika"ga pog'onaviy bo'ysunishini ko'rsatadi. "(1) *qunčuy* (2) *buyuruq*: ärtim". Aytish lozimki, mazkur davrda turk qunchuy ("malika") sharafiga o'rnatilgan alohida bitiglarni ham ko'rish mumkin<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> T.Battulga tomonidan birinchi marta nashr etilgan besh qatorli Bombogor bitigi Qarluq qavmiga turmushga chiqqan turk qunchuy ("malika") sharafiga o'rnatilgan qabr toshidir [Şirin 2015, 1 – 9].



**Buyuruq.** “qo’mondon; o’rinbosar”, “vazir, buyruq beruvchi”, “gubernator” [Pasanen 1969, 87; Erdal 1991, 231; ДТС 1969, 121] ma’nolaridagi *buyuruq* S. Klausonga ko’ra, “dastlabki davrda ma’muriy yoki harbiy lavozim unvoni, aftidan, xoqon tomonidan muayyan vazifalarni bajarish uchun buyurilgan barcha shaxslar uchun umumiy atama” deya baholanadi (Caluson 1970, 387). Manbalarda ikki xil: *buyruq* va *buyuruq* shakllarida ko’zga tashlanadigan mazkur istiloh Qarabalg’asun II bitigida *buyuruq* o’qilib, bevosita harbiy unvon sifatida ishlatilgan (Rysbek 2015, 32). Unvonning qadimgi turkcha *buyur-* “buyurmoq, amr qilmoq” fe’lidan yasalganini sezish qiyin emas. Ushbu asos (*buyur-*) “Devonu lug’otit-turk”da mavjud [DLT, I, 316], lekin qadimgi bitigtoshlardan tashqari ushbu asar [DLT] yaratilgan davrgacha bo’lgan boshqa manbalarda ko’zga tashlanmaydi. Uyg’ur xoqonligining markaziy boshqaruvi – saroyda hukmron xonadon a’zolaridan tashqari *buyuruq* derivati bilan ifodalangan harbiy vazirlar ham joy olgan. Istiloh O’rxun-Yenisey obidalaridan Kul Tigin va Bilga xoqon bitiglarida uchraydi: “*buyruqi yäma biligsiz ärinč* – vaziri ham johil ekan” [KT, 35]. Hokimiyat ishlarida buyruq, amr va farmonlarni berish birinchi navbatda bosh hukmdor – xoqonning vakolatiga kirganligi nazarda tutiladigan bo’lsa, “vazir” ma’nosidagi mazkur istilohning aynan *buyur-* fe’lidan yasalgani diqqatga sazovordir. A. Donuk *buyruq* terminini “hukumat a’zosi” (vazir) tarzida izohlaydi va uning “unga bo’ysunadigan jamoalarning ma’muriy-harbiy ishlarini tartibga solish uchun markaziy ravishda tayinlangan yuqori mansabdor shaxs”ni [Donuk 1988, 12] anglatganini aytadi. Shuningdek, tadqiqotlarda *buyruq* ko’plik shakl sifatida [Giraud 1999, 127] va “yuksak vazifali qo’mondon” [Tekin 2000, 242] ma’nosida ham izohlanadi. Qarabalg’asun II bitigida mazkur unvonning ko’proq ikkinchi ma’nodagi izoh – “yuksak vazifali qo’mondon” mos keladi. Chunki, u bu yerda shunchaki mulozim emas, malikaning maxsus topshiriqlarini ijro etish bilan birga, uning xavfsizligi uchun javobgar shaxs hamdir. Qolaversa, *buyuruq* “harbiy yoki fuqarolik burchlarini bajarishga mas’ul va xoqon qo’mondonligi ostida ishlaydigan davlat xizmatchisi” [Şirin 2016, 395] ham edida.

Aytish kerakki, ushbu leksema “uyg’ur davri matnlarida *buryuq* shaklida (metatezaga uchrab) *bägdan* quyi, *inäñdan* yuqori daraja kasb etgan” [Malov 1951, 443]. Buni quyidagi jumalalarda kuzatish mumkin: “*bäggärü ötünti ol buryuqi* – buryuq (buyruq) begga ta’zim qildi” [OY, 638/1]; “*qatunlar tigitlär bäglär buryuqlar inančlar tayančlar arqası* – xotunlar, shahzodalar, beklar, buyruq

(vazir)lar, inanchlar, tayanchlar” [OY, 417/1]. Ushbu unvon nomi aynan “buyurmoq” fe’lidan yasalishi, albatta, uning boshqaruvda egallagan mavqeyi bilan bog’liq. Demak, “xoqonlikda bosh hukmdordan tashqari asosiy buyruqlarni beruvchi amaldor – vazirlarning *buyruq* deb atalishi, ularning hukumat ishlarida katta mavqega ega bo’lganliklari va hokimiyat ishlari bilan bog’liq asosiy amr hamda farmonlarni chiqarishda vakolatli bo’lganligini ko’rsatadi” [Boboyorov 2018, 136]. Mahmud Koshg’ariy *buyruqni biruq* shaklida qo’llaydi va uni darajasiga ko’ra xoqonga eng yaqin shaxs sifatida “shoh yonida kattalarni o’z joyiga o’tkazuvchi kishi” deya ta’riflab, uni asli *buyruq* – buyuruvchi, amr etuvchi, deb ko’rsatadi. Chunki u ma’nosiga ko’ra biror ishda o’zidan quyidagi darajadagilarga buyruq berganligini qayd etadi [DLT, I, 316, 359]. QBda ham *buyruq* (bir o’rinda) va *buyur* so’zlari bitiglardagi ma’no hamda vazifada tilga olinadi: “*Yämä yaxši aymiš bu türk buyruqi* – Yana aytmiş bu turk kishisi” (QBK, 50), “*Yarayliḡ äränkä buyurdi işi* – vazifani ishonchli kishiga topshirdi” [QBK, 6]. Qadimgi turk bitigtoshlarida davlat yuksalishining asosiy sababchilari haqida gap borar ekan, xoqonlar bilan birga boshqa amaldorlar emas, aynan vazirlar (xususan, *buyruqlar*)ning *bilga (dono) xoqon ekan, alp (bahodir) xoqon ekan, buyruq (vazirlar)i ham bilga va alp ekan* mazmunida tavsiflanganligi, aksincha xoqonlik tanazzulining asosiy aybdorlari sifatida ham xoqonlarning, ham vazirlarning *biligsiz (johil) xoqon o’rnashgan ekan, yablaq (yomon) xoqon o’rnashgan ekan, buyruqlari ham biligsiz ekan, qo’rqoq ekan* [KT, 101 – 103] tarzida ayblanganining guvohi bo’lish mumkin (Boboyorov 2018, 136).

**(Ä)rd(i)m.** Bu so’zni B. O’zundar *(ä)rd(ä)m* – “fazilat” deb o’qishni ma’qul ko’radi, ammo undan oldingi *buyuruqi* bilan birga birikib *buyuruqi(ä)rd(i)m* – “vazirning fazilati” ma’nosini anglatganda matnning umumiy ma’nosiga mos tushmaydi, chunki uchinchi shaxs birlik egalik qo’shimchasi to’ldiruvchi elementda emas, balki u kerak bo’lgan joyda to’ldiruvchida paydo bo’ladi [Alimov 2015, 32]. Bunda grammatik bog’lanish va kontekstual moslik nuqtayi nazaridan so’zning *(ä)rd(i)m* – “(Men) edim” o’qilishi (M. Shinehuu, N. Bazilhan va M. O’lmaz kabi) to’g’ri bo’ladi. Shunda *ä(r)*- – asos, *-di* – o’tgan zamon shakli, *-m* – I shaxs birlik shaxs-son shakli. Ushbu leksema bitigning keyingi satlarida ham “edim” ma’nosida keladi: (2) *buyuruqi: ärtim* (buyuruqi edim); (3) *öñt(ä)n(i)g: tïd(a)r* (4) *ärtim* (oldindan qo’riqlar edim) (4): *käd(i)n(i)g* (5) *it(i) (ä)rür: (ä)rt(i)m* (ortni tartibga keltirar edim). Aytish kerakki, *ärtim* to’liqsiz fe’l shakl o’laroq, o’zidan oldingi so’z bilan eliziyaga uchragan holda qadimgi

turkcha matnlarda ko'zga tashlanmaydi.

**Öntänig.** Leksema *öñ* – asos, *-tän* – ablativ (dan, -dan turib, manbaa sifatida), *-ig* – nisbiy/munosabat ko'rsatkichi (soyalanma qism, nisbiy kelishik xususiy shakli) orqali shakllanib, asos - *öñ*-qadimgi turkchada to'rt asosiy yo'nalishdan biri – “sharq”ni anglatsada, uning ushbu davrda bir qancha potensial semalari mavjud bo'lgan. Ta'kidlash kerakki, bitigtoshdagi “(3) *öñt(ä)n(i)g: tïd(a)r* (4) *ärtim*” jumlasini “sharqdan qo'riqlar edim” mazmunida tushunish juda jo'n talqin bo'lib qoladi. Falsafiy mushohada zamiriga qurilgan mazkur bitigdagi asosiy so'zlarning majoziy ma'noga xoslangani hisobga olinsa, undagi *öñt(ä)n(i)g* (shuningdek, *käd(i)n(i)g*) so'zini ham kengroq planda talqin qilish talab etiladi. Bunda ushbu tomon bilan bog'liq birliklarning semantik xususiyatlariga e'tibor qaratamiz. Aytish lozimki, ushbu so'zning asosi manbalarda *öñ/oh* shakllarida parallel uchraydi. DLTda ikki variant mavjud. Shuningdek, leksema manbalarda quyidagi ma'nolar bilan uchraydi:

**YO'NALISH** – “old”, “o'ng”, “sharq”: “oldinda turuvchi, bosh yo'nalish, boshlanish maskani”.

*Öñ* – “o'ng tomon, yo'nalish nomi”. Bu so'z uyg'ur-turk tilidan beri barcha tarixiy lahjalarda qo'llanilgan [Clauson 1972, 166 – 167; Eraslan 2012, 592; Tokyürek 2018, 540]. “*Öñtün küntün buluñda ögrünçlüg yäl yäldirdi* – sharqdan (so'zma-so'z tarjimasi: oldingi burchakdan) va janubdan quvonchli shamol esdi” [DTS, 386]. Ushbu leksema O'rxun bitigtoshlarida *-ra* kelishigi bilan birikib, aynan “o'ng tomon (sharq)” ma'nolarida ko'zga tashlanadi: “*Türük budun: öñrä: kün: toyusiqäña: kisträ: kün: batsiqiña: tägi:*” [BA, 2]; “*öñrä kün toyusuqdaqi: bodun: kisträ ay toyusuqdaqi: bodun:*” (Tar, 3); “*bilgüsin üçün öñrä: kün toysiqdaqi bodun*” (Tes, 18); “*sü yoridi: özümün öñrä: biña: baši: iti:*” [MCh, 6]; “*anta sančidim äbi: on kün öñrä ürküp barmış anta:*” [MCh, 31].

*Öñ* – “to'g'ri; old”. Ushbu ma'no ham DLTda ko'zga tashlanadi, bunda ushbu so'z turlanib keladi: *öñdün* – “to'g'ridan” (*öñdün yurit* – otingni to'g'ridan sol, oldindan yurgaz). O'g'uzlar bu so'zni qo'shimchasiz yuqoridagi ma'noda ishlatigan [DLT I, 76, 138]. QBda *öñ*'ning yuqoridagi ma'nosi bilan bog'liq *öñdin* – “oldin” (*Qamuy ašnuda sän sän öñdin kädin* – Hamma narsadan Sen oldin, oldda va ortda [QBH, 10<sub>27</sub>]); (*Qamuy işkä öñdün joritsu älig* – Hamma ishga avval qo'l yuritsin” [QBN, 3927; QBN, 5353] kabi shakllari mavjud.

*Öñ* – “qarshisida, ro'parasida (yuzma-yuz), qoshida”. So'zning bu ma'nosi QBda oydinlashadi: “*Mälikniñ öñindä oqumiş muni* – Malikning qarshisida buni o'qidi” [QBH, 7<sub>10</sub>]. DLTda *öñrä* –

“chalqancha” soʻzi ham tilga olinadiki [DLT III, 388], bunda ushbu soʻz “yerga nisbatan oldi bilan (yuzma-yuz)” holat yoki harakatni anglatadi.

**AKSIAL SEMANTIKALAR** – “toʻgʻri”, “haqiqiy”, “rost”, “qonun”, “tartib”, “najot”, “xavfsizlik”: *öŋ* = tartib, haqiqat, rost yoʻl.

*öŋ* – “haqiqiy”. Bu soʻz uygʻur va keyingi davrda qoraxoniylar, xorazm, qipchoq va chagʻatoy turk davrlaridagi asarlarda shu maʼnoda uchraydi [Clauson 1972, 166–167]: “*Tärslı öŋlı ädgülı ayylı iki Türüg qılınč qılsar*” [DTS 1969, 367]; “*Uquşuy ađirtıy bilıgdä öŋı/Nägü täg turur ay sözüññüŋ öŋı*” [KB, 1833] [Arat 1947, 200].

*Öŋ* – “qulay; oson”. Bu noodatiy maʼno DLTda uchraydi, unda u *öŋay* soʻzining qisqa shakli ekanligi aytiladi: *öŋ iş – oson ish* [DLT I, 76] [Ercilasun va Akkoyunlu 2014, 19; DTS 1969, 367]. Keyingi davrda *öŋay* – “qulay” soʻzidan *öŋaylık* – “qulaylik” soʻzi shakllanib, manbalarda “oson, harakatlanuvchi” [DTS 1969, 367], “bardoshli”, “omad” maʼnolarida ishlatila boshlandi. Shuningdek, DLTda *öŋakay* – “oʻng, qulay” maʼnolarida izohlanadi.

*Öŋ* – “omad, taqdir”. Bu soʻzning ishlatilishi qoraxoniylar davri asarlarida aniqlangan [Güler 2025, 1259–1283]: “*Quluy käd sınayu qılınçı yanı/ Uquşı täñınčä tägürgü öŋı*” (KB, 4080) (Arat 1947).

*Öŋ* – “xavfsizlik, tinchlik, najot [Güler 2025, 1259–1283]; yoʻriq”. “*Asrovıñ bizgä täyirgil, mänülik öŋgä tătırgıl*” [Argunshah va Güner 2015, 382]. QBda yuqoridagi maʼnolarga monand *öŋdi* soʻzi koʻzga tashlanib, “qoida, qonun” maʼnolarida oydinlashadi: “*Bu janlıy turur bu ađun öŋdısi saranqa söküşı aqı ögdısi*. – Bu dunyo qonuni shunday: yomonga – soʻkish, saxiyga – maqtov” [QBK, 175<sub>5</sub>].

**JARAYONGA OID SEMANTIKALAR** – “yaxshilanish”, “oʻnglanish”, “tuzalish”: metaforik jihatdan “hayot tartibining tiklanishi / boshqarilishi”.

*Öŋ* – (feʼl sifatida) “yaxshilanish; tuzalish; ijobiy rivojlanish”. Manbalarda *öŋal-/öŋul<sup>-1</sup>* va *öŋar-* feʼllari ham borki, G.Klauson bu soʻzlarning kelib chiqishini *öŋa-* nom feʼliga bogʻlaydi. Uning taʼkidlashicha, *öŋal-/öŋul-* soʻzlari birinchi marta uygʻur-turk tilida paydo boʻlib, bulardan *öŋul-* talaffuzi qadimiyroqdir [Glauson 1972, 185]. *öŋa-* soʻzi qoraxoniylar davri matnlarida “tuzatish” maʼnosida uchraydi: “*Öŋayalı irpälđı iş*. – Ish uni tuzatishga urinayotganda buzıldı” [DLT III, 128/113].

**RANGGA OID ARXISEMA** – “rang, jilva”: dunyo tuzilishidagi “nur/yorugʻ” tamoyiliga yaqin.

<sup>1</sup> Tadqiqotlarda koʻra *öŋul-* soʻzi *öŋa-* feʼlidan majhul ovoz qoʻshimchasi *-l* bilan shakllangan [Özyetgin 2001, 38].

Shuningdek, *öñulti / öñulti / öñuldi, öñländi* – “o’ngaldi (o’nglandi); tuzaldi; ranglandi” so’zlari ham borki, bu shakl (asosan) kasalning sog’ligi yaxshilanishiga nisbatan ishlatilgan. Ushbu so’zga zid ma’noda QBda *öñ*- fe’li “rangi o’chmoq, oqarmoq” tarzida izohlanadi: “*Jüzi qizdi öñdi* – Yuzi qizardi, rangi xiralashdi” [QBH, 110<sub>11</sub>]. Bunda QBdagi *öñ*- (*öñdi*) fe’li kasalning og’irlashishini anglatasa, DLTdagi *öñlän*- (*öñländi*) fe’li kasalning yaxshilanishini anglatadi. O’zbek tilining qipchoq lahjasidagi *öñaril*- fe’li bevosita “tuzaldi; rivojlandi; (ishi) yurishdi” ma’nolarida ishlatiladi. Yana bir e’tiborli jihat, QBdagi “*Jüzi qizdi öñdi*” jumlasidagi *öñdi* so’zining “rangi xiralashdi, rangsizlandi” ma’nosida kelayotgani hisobga olinsa, bunda *öñ* so’zining qadimgi turkchadagi ranglar bilan bog’liq arxisemasi faollashgan bo’lishi ham mumkin. *öñ* asarda “rang, bo’yoq” ma’nosida ham uchraydi (*Azun qirişi boldi altun öñi* – Olam yopinchi’i oltin rangga burkandi [QBN, 406<sub>2</sub>; QBN, 5549]. Qolaversa, ushbu asarda *öñdürdi* so’zi “rangi o’zgardi” ma’nosida qo’llaniladi: “*Jana turdi anča bu oldurdi-ja, sariy tañ ata kaldi öñdürdi-ja* – Yana turdi, ancha vaqt o’tirdi, sariq tong ota boshladi, rangini o’zgartirdi [ya’ni yorug’lashdi]” [QBN, 4271; QBN, 5846].

***Käd(i)n(i)g***. *Käd* topoleksemasi O’rxun bitigtoshlarida tarafga ishora qilib, asosan “g’arb, kun botar”ni anglatib keladi. Quyidagi olingan misollarda uning aynan shu ma’nosi reallashadi: “*anta: idiq jär: kädintä: Aybaš Tuquš: bältärinti: anta yayladim*: (MCh, 21)”; “*Ötükän kädin učinta: Töz başinta: örügün* (Tar, 1)”; “*İduq başi kädinintä: yayladim*. (Tar., 2)”; “*Ötükän: quzi kädin učı ... qiçlayim* (Tar., 5)”; “*Ötükän: ortusunta : kädinin örügin: bunta: ätdim* (Tar., 30)”. Ushbu so’zning *kädin* asosi qoraxoniylar davri manbalarida quyidagicha ma’nolarda tilga olinadi: *kädin* – “keyin” [DLT I, 230], *kädin / kädin* “keyin, orqada” (*Nägü tæg bolur sän mäniñdin kädin* – Mendan keyin qanday yashaysan? [QBH, 51<sub>3</sub>]; *Baqar soldin ondin häm öñdin kädin* – O’ngdan, chapdan, oldindan, orqadan boqar [QBN, 142<sub>11</sub>; QBN, 1824]. Shuningdek, eski turkiy tilda *käd* so’zi ham ko’zga tashlanadiki, uning “mustahkam, asosiy(si), muhim, alohida” ma’nolarida qo’llanishi e’tiborga molik: “*Öz igdiš käräk käd sinamiš jilin* – Mohir Igdish (qabila), asosiysi, yillar mobaynida sinalgan bo’lishi kerak” [QBN, 213<sub>8</sub>; QBN, 2845]. Chunki tahlil qilinayotgan so’zning bunday ma’nolari “*kädinig iti ärür: ärtim*” jumlasidagi *käd(inig)*’ni shunchaki tomon (g’arb) ma’nosida o’girib bo’lmasligini anglatadi. Shu jihatdan bitigdagi *käd(i)n(i)g* so’zini “oxiridagi, orqasidagi” yoki qandaydir konnotativ ma’nolarda talqin qilinishi kerak, chunki bu so’zlar matnning umumiy uslubida hukmronlik



qilgan mantiqiy ziddiyat – kontrastga to'g'ri keladi [Alimov 2015, 32]. Aytish kerakki, qadimgi turkchadagi *käd* va *kädin* so'zlari *käd* ~ *kät* / *kädin* ~ *kätin* ~ *kägin* ~ *käyin* (*adaq* ~ *adaq* ~ *ayaq* ~ *ayay* kabi) shaklida fonetik o'zgarishga uchradi. Hozirgi o'zbek tilida *kät* va *kätin* / *kägin* / *käyin* shakllari quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi: *kät* – “1. orqa; 2. tana orqa qismi (beldan past); 3. poyon; 4. oxiri” [O'TIL III, 342]; *käyin* – “1. so'ng; 2. avvalgisining ketidan; 3. orqa; ket; 4. yana; 5. o'tgach”; *käyini* – “1. navbatdagi; 2. orqadagi; 3. so'nggi; 4. yangi” [O'TIL III, 358]. *käd(in)* so'zining yuqoridagi davriy turli ma'nolarini umumiy tahlil qilib, bitigtoshdagi “(4-5) *kädinigi iti ärür: ärtim*” jumlasini “ortni tartibga keltirardim” shaklida talqin qilish bitig umumiy matniga mos tushadi.

**Tid(a)r (ä)rt(i)m** va **iti ärür: ärtim**. M. Shinehuu bu shaklni *atidar it(d)im* – “Sharq xalqiga boshpana berdim” sifatida talqin qilgan, N. Bazilhan esa *iti ärür: ärtim* – “Sharqni otda vayron etdim” kabi o'qigan, ammo qadimgi turkcha “boshpana berish” ma'nosini anglatuvchi *atid-* fe'li yoki “parchalamoq” ma'nosini anglatuvchi *id-* fe'li uchramaydi. Ba'zi manbalarga ko'ra, *öñtün-kidin*, *kök täñri-yayüz yär* kabi antonimlarning, shuningdek, keyingi qatordagi *itär-* – “itarish, harakatlantirish” fe'lining paydo bo'lishi hisobga olinganda, bu so'z oxirgi fe'lning kontekstual antonimi bo'lishi kerak bo'ladi [Alimov 2015, 32]. O. Barutchu va M. O'lmaz *tid-* fe'lini to'g'ridan to'g'ri “to'sqinlik qilmoq” deb tushunadilar, tarixiy va zamonaviy turk tillarida esa, S. Klauson ta'kidlaganidek, “to'xtatmoq, tiymoq, cheklamoq” kabi boshqa ma'nolarga ham ega [Klauson 1970, 450]. Demak, *tid-* / *tit-* / *tid-ar* qadimgi turk tilida “qo'riqlamoq, asramoq, tartibni saqlamoq” ma'nolarida gavdalanib, bitigda konnotativ jihatdan majoziy ma'nolarda qo'llanilgan.

Bitigning “(3-4) *öñtäniğ : tidar ärtim: (4-5) kädinigi iti ärür: ärtim*” jumlasiga xulosa:

Demak, mazkur jumladagi topoleksemalar shunchaki odatiy geografik yo'nalishlarni (“Sharqdan qo'riqlardim – G'arbni tartibga keltirardim”) bildiruvchi birlik emas. *Öñ* va *kädin* leksemalarining qadimgi turk tilidagi ko'p qavatli semantik tizimi, ayniqsa *öñ*'ning “old, haqiqat, tartib, asosiy yo'l, rost taraf, xavfsizlik, najot” kabi majoziy qatlamlari bu birikmani falsafiy-kayhoniy vazifa tasviri sifatida talqin qilishga imkon beradi. Shunga ko'ra, mazkur jumla noma'lum muallifning kayhoniy va ijtimoiy tartibning ikki qutbini – old (*öñ*) va orqa (*kädin*) yo'nalishlarini saqlovchi va barqarorlashtiruvchi shaxs sifatida tasvirlanishini anglatadi: “*Men old tomonni – rost yo'l, haqiqat va tartib tarafini qo'riqlab turar edim; orqa tomonni – tayanch va*

*davomiylik tomonini esa tartibga solib, muvozanatda ushlardim”.*

### **Bitigtoshdagi nazmiy parcha: saj'ning antiteza usulida berilishi**

Ushbu maqolada tadqiq etilishi zarur bo'lgan yana bir asosiy masala – matnning ikkinchi qismi (6-10-qatorlar), bitigtoshdagi nazmiy o'rin – saj'dagi antitezani shakllantirgan leksik vositalarni o'rganishdir. Bitigtoshning birinchi qismi muayyan adabiy xususiyatga ega bo'lib, matn cho'qqisiga chiqqan ikkinchi qismda yuksak badiiyat namoyon bo'ladi. So'nggi – uchinchi qism esa badiiylikning biroz quyi darajasini ko'rsatadi. Bitig matni she'riyatga xos bo'lgan adabiy vositalarni o'z ichiga oladi, lekin bu xususiyat butun matn davomida muntazam va tartibli takrorlanmaydi. Aytish kerakki, bitig davr yodnomalaridan “aralash – nasr-nazm” shaklda ekanligi, ya'ni nasriy matn ichida she'rga yaqin parcha borligi bilan farqlanadi. Turkiy adabiyotga nazar tashlanganda bunday usulning eng qadimgi va yorqin namunalarini o'zbek folklorida ko'rish mumkin. Xalq dostonlari uchun asosiy tasvir usuli bo'lgan nasr ichida nazmga o'tilishi asarning badiiy qimmatini oshirgan va o'quvchi yoki eshituvchiga estetik zavq bergan. Shu o'rinda mazkur badiiy hodisa bilan bog'liq ikki tushunchani farqlab olish lozim. Asarlarda nasriy matn ichida gap bo'laklari, asosan kesimi qofiyadosh bo'lgan qo'shma gaplar saj' sifatida olinadi [Мусулмонқулов 1970, 26]<sup>1</sup>. Masalan, “*Fayzi sahar vaqti Tarlonni jabduqlab mindim. Katta ko'chada ohista qadamlatib-qadamlatib yurdim*” [Tog'ay Murod 2018, 419]. Asar syujeti nasrda berib borilib, shiddatli voqealar (masalan, otlar yugurishi yoki janglar tasviri), o'zaro savol-javob tasvirlarining she'riy shaklda berilishi (xalq dostonlarida asosan 7-8 bo'g'inda) nasriy-nazmiy – aralash, ya'ni liro-epik janr sifatida ko'riladi. Masalan, “Alpomish” eposidagi otlar poygasi tasviri yohud boshqa tasvirlar bunga misol bo'la oladi. Shu nuqtayi nazardan Qarabalg'asun II bitigi matnining ikkinchi qismi (6-10-qatorlar)dagi tasvirni saj'dan ancha yuqori darajadagi badiiy hodisa, lekin hajman o'ta qisqa bo'lgani uchun liro-epik janr mahsuli bo'lmagan ilk o'rta asr turkiy adabiyotiga xos badiiy topilma sifatida qabul qilish mumkin. Ya'ni “qat'iy she'riy tizim, talab qilingan adabiy vositalar mukammal bo'lmasa-da, badiiy ta'sirchan qo'llanishi bilan Qarabalg'asun II yodnomasi anchayin she'riy shaklga yaqindir” [Hasan 2025, 257–

---

<sup>1</sup> R.Musulmonqulov *saj'*ga shunday ta'rif beradi: “Saj' nasriy gaplar oxiridagi ikki yoki undan ortiq so'zlarning qofiyada yoki vaznda, yoki har ikkalasida barobar kelishidan iboratdir”.

283].

Bitigtoshdagi asosiy badiiy tasvir quyidagi ikki misra orqali anglashadi:

(6-7-8) *kök: Täñiridä qutum: yuyqa bolti:* – Ko'k osmonda qutum yuqa bo'ldi.

(8-9-10) *yayiz yärdä: yolim qışya: bolti* – yag'iz (qaro) yerda yo'lim (safari) qisqa bo'ldi.

Qunchuy – malika vaziri bo'lgan shaxs (yurtni?) Sharq va G'arbdan qo'riqlab, uni tartibga keltirdi. (Ammo hayot beshafqat) Uning ko'k osmonda quti yuqa bo'ldi, yag'iz (qo'ng'ir) yerda nasibasi qisqa bo'ldi (tiyildi). O'limi aniq bo'ldi. O'g'lining oti Buqadir. Badiiy ahamiyatga ega "*kök: täñiridä qutum: yuyqa bolti, yayiz yärdä: yolim qışya : bolti*" jumalari matnning lingvistik va badiiy qimmatini belgilaydi. Bunda "noma'lum muallif hayot va o'lim o'rtasidagi farqni she'riy va nasr orqali farqlashga harakat qiladi. U hayotni o'z ichiga olgan birinchi qismdan so'ng, nasrda o'limni she'riy shaklda taqdim etadi. Asosiy nuqta she'riy shaklda ifodalanib, o'quvchi e'tiborini tortadi" [Hasan 2025, 275]. Ushbu ikkinchi qismda ohangdorlikni ta'minlagan yana bir muhim jihat ikki qatordagi so'z-tushunchalarining parallel ravishda o'zaro zid qo'yilishi – antiteza<sup>1</sup> orqali yuzaga chiqarilgan. Bunda dastlabki uchta so'z shartli antonimlik (*kök – yayiz, täñiri(dä) – yär(dä), qut(um) – yol(im)*), oxiridagi qo'shma fe'llar esa (*yuyqa bolti – qışya bolti*) ma'noviy yaqinlik hosil qiladi. Ikki misra, umuman, butun matndagi qofiyani shakllantirgan birliklar ham ushbu misralar oxiridagi qo'shma fe'llar hisoblanadi. Endi matnda ma'noviy ziddiyatni hosil qilgan so'zlarning qadimgi turkiy tildagi semantik-funksional xususiyatlariga to'xtalsak.

Ma'lumki, qadimgi turkiy mafkuraga ko'ra dunyo uch yarus (qat)dan tashkil topgan edi: tepada *kök (ko'k)* – osmon, pastda *yayiz (qaro)* – yer, o'rtada *kişi oyuli* – inson bolalari. Buni Kul Tigin bitigidagi ilk misrada tilga olingan "*Üzä Kök Täñri asra yayiz yär qilinduqda ikin ara kişi oyli qilinmiş. Kişi oylinta üzä äcüm apam Bumün qayan, İstämi qayan oturmış* – Tepada ko'k osmon, pastda qaro yer yaratilganda ikkisining orasida kishi (inson) bolalari yaratilgan. Kishi (inson) bolalari ustidan ota-bobom Bumin xoqon, Istamiq xoqon taxtga o'tirgan" (KT 1) jumlasidan ham anglash mumkin. Qadimgi turk tilida *kök*'ning "osmon; qadimgi turklar xudosi Tangri

<sup>1</sup> Antiteza, bu – so'z birikmasi, uslubiy shakl bo'lib, bir narsa yoki tushunchani unga zid bo'lgan boshqasi bilan keskin farqli darajada qarama-qarshi qo'yish orqali ifodalanadi. U nutqni yanada ravon va ta'sirchan qilish uchun ishlatiladi.



qut"ni anglatishi ma'lum. Ushbu so'z *Täjiri* bilan birga qo'llanib, muallif uchun "taqdir va rizq manbayi"ni anglatmoqda. Qatorda *kök* so'ziga *yayiz* zid qo'yilmoqda. Manbalarda qizil bilan qora o'rtasidagi bir rang (qo'ng'ir) sifatida izohlangan [DLT III, 17] bu so'z (rang) qadimgi turkiy tilda xuddi qora kabi quyidagi ma'nolarni anglatib kelgan: "1. qora, tim qora, xafa, baxtsiz; 2. xalq, omma, mol; 3. yer, quruqlik; 4. qiyalik" (Kononov 1975, 61). Bu o'rinda *yayiz* so'zi *yär* – "yer" leksemasi bilan birikib, muallifning kayfiyatini ko'rsatmoqda. Ya'ni, o'zining ruhiy holatini muallif sifatlar leksemasidan juda o'rinli foydalangan holda o'quvchiga bayon etgan.

Misradagi *qut* bitigtoshlarda "baraka, omad, Xudoning marhamati" [Tekin 1988, 104], "hayotdagi osmonning kengayishi" [Roux 2002, 44] kabi ma'nolarni anglatgan. Mahmud Koshg'ariy lug'atida *qut* so'zi "baxt, davlat" [DLT I, 331], "Qutadg'u bilig" (QB)da *qut* – "baxt, omad" [QBN, 11814; QBN, 1484], G. Klausonda "omad, baxt" ma'nosida qayd etiladi [Glauson 1972, 594]. Ko'rish mumkinki, *qut* bitigda "odamlarni baxtsiz hodisalar, ofat va falokatlardan himoya qiluvchi" kuch sifatida aks ettirilgan. Shuning uchun, B. O'zundar ta'kidlaganidek, Qarabalgasun II bitigi mazkur o'rinlar bilan "Ko'k Tangrini tushunish uchun asosiy matnlardan biri" bo'lishi mumkin. Bitigidagi "oldinni qo'riqlar edim", "ortdagini tartibga keltirardim" iborasi ham dasht madaniyatida ijtimoiy adolatni tushunishdagi ramziy ma'nosi bilan diqqatga sazovordir [Alimov 2015, 29].

Misradagi ushbu *qut(im)* so'ziga parallel qo'yilgan *yol(im)* so'zini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Chunonchi, qadimgi turkchada "omadli, baxtli" ma'nolari *yolluy* derivati bilan ifodalangan. U Bilga xoqon bitigtoshida matn muallifi nomi tarkibida qo'llangan: "*Bilgä qayan bitigin Yolluy tägin bitidim* – Bilga xoqon bitigini (men) Yollug' Tigin yozdim" (BX XI). Darhaqiqat, *yolluy* so'zi *yol* – "yo'l" so'zi va otdan ot yasovchi *-luy* affiksining qo'shiluvidan yasalgan. *Yol* so'zi eski turkchada "omad, tole" tushunchalariga monand "yaxshi yo'l, to'g'ri yo'l" (oq yo'l kabi) tarzda metafora qilinganligi bois *yolluy* ham ezgu yo'lli, yo'li porloq, ya'ni omadli, baxtli kabi ma'nolarga ega bo'lgan o'ziga xos nom sifatida ishlatilgan [Dustmurodov 2025, 122]. Jumladan, tuva tilida *yol* so'zining asl ma'nosi unutilib, *chol* shaklida "baxt, omad, tole" ma'nolarida qo'llanilib, eski turkcha *yolluy* tuvachada *choldug* – "baxtiyor, xursand" shaklida aniqlangan" [Şirin 2015, 144]. Eng ahamiyatlisi, Mahmud Koshg'ariy *yol* so'zini "yo'l" [DLT I, 426] va "safar" [DLT I, 87] deb izohlaydi. Demak, ikkinchi misradagi "*yayiz yärdä: yolim qışya : bolti*" jumlasini "yer

yuzidagi umr safarim (toleyim) qisqa bo'ldi, ya'ni umrim bitdi" shaklida o'g'irish mumkin bo'ladi. Qolaversa, *yol* (*yo'l*) so'zi hozirda turkiy tillarda ham eski turkcha matnlardagi va boshqa ma'nolarda keng qo'llaniladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi "oq yo'l, yo'li ochiq, yo'li porloq, yo'lingizni bersin" kabi iboralar bevosita "omad, baxt, tole" tushunchalari bilan aloqador ravishda "uzoq va xatarsiz umr tilash"ni anglatadi. O'zbek tilida *yo'l* so'zi "yo'li bor, yo'l tushirilgan; o'rinli, jo'yali" ma'nolarda qo'llanadi [O'TIL II, 280].

Har ikki misrada ham tilga olingan "ne'matlarning nihoyalangani" misralar oxiridagi *yuyqa* va *qişya* so'zlari orqali anglashilgan. Ya'ni "ko'kdan berilgan madad quti (obihayot) yuqalandi (tugadi) va umr yo'lini ham shu joyda bitirdi (qisqa qildi). Misralar so'ngidagi *bolti* – "bo'ldi" radifi esa hukmni ifodalab turibdi. Ayniqsa, *qutum yuyqa bolti* parchasi qadimgi turkiy e'tiqod tizimining muhim tafsilotini namoyish etishi bilan bitigtoshning adabiy qimmatini ochib ko'rsatadi. Aytish kerakki, ushbu ikki satrni sabab va oqibat mazmunida tushunish to'g'riroq bo'ladi, ya'ni "Ilohiy quvvat mendan yuz o'girdi, baxtim pasaydi va alal-oqibat yerdagi yo'lim ham toraydi – hayotim og'irlashdi" demoqchi. Ushbu ikki misra uchun esa keyingi qatoridagi (11) *tägmışä : bolti* – "(o'lim) tegadigan bo'ldi" jumlasini umumiy oqibat (natija) hisoblanadi. Tarixiy turkiy lahjalar bo'yicha leksikografik tadqiqotlarda ushbu yozuvda bo'lishi kerak bo'lgan ma'noga mos keladigan ekvivalenti mavjud bo'lmagani holda, N. Bazilhan *tägmışä bolti*, M. O'lmez (birinchi so'zni) *tägmäkä*, A.Rysbek *tägmim*, B. O'zundar *ätigimaşa bolti* – "mening harakatlarim (ishlarim) tugadi" shakli va ma'nosida o'qigan ushbu birikmani M. Shinehuu *tägmäkä bolti* o'qib, "yo'qolib keta boshladi" deb talqin qiladi [Alimov 2015, 33], lekin bu o'qishlardan anglangan ma'no bitig mazmuniga mos emas. Shu o'rinda so'zning o'zagi bo'lgan *täg*-leksemasining manbalarda asosan "hujum qilmoq" ma'nolarida tilga olinishi diqqatga sazovor: "*Sü tägisintä yätinč äriğ qiličladi* – lashkar hujumida yettinchi erni qilichladi" [KT 45/5]; "*Tabyač, bärdänäyin täğ* – Tabg'ach sen o'ngdan hujum qil" (To'n 11). Demak, asosiy o'zak ma'nosi "tegmoq; o'ldirmoq; mag'lub etmoq" bo'lgan *täg*- fe'lidan hosil bo'lgan *tägmışä bolti* birkmasini "(o'lim) tegadigan (tegmish) bo'ldi" ma'nosida o'g'irish to'g'riroq bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham *teg*- fe'l-leksemasi bir qancha potensial semalar kasb etadi [O'TIL III, 342].

Demak, umumiy ma'noda aytish mumkinki, ushbu ikki misra turkiy ruhoniylar dunyoqarashga xos bo'lib, dastlabki qatorga (6-7-8-) ko'ra eng muhim so'z *qut* qadimgi turklarda "ilohiy baraka, davlat,

hokimiyat, omad, hayotiy kuch, qadr-qimmat, osmonning insonga bergan tiriklik manbayi” sifatida *qutum: yuyqa bolti* deyish orqali “ilohiy barakam kamaydi, osmon – Tangri menga bergan madad susaydi” deyilmoqda. Keyingi misralarda (8-9-10-) yerning *yayiz* deya atalishi – “qorong’u, qattiq, og’ir, sinovli” ma’nolarini beradi. *Yolim qishya bolti* esa “imkoniyatlarim toraydi, taqdir yo’lim to’sildi” ma’nosini anglatmoqda. Aytish kerakki, qadimgi turk dunyoqarashida bu kabi obrazlar orqali insonning quvvati, baxti, rohati osmon va yer bilan bog’lanadi. Ko’kdagi qutning yuqa bo’lishi – insonning ruhoniy dunyodan uzilishi, yerdagi yo’lning qisqarishi – hayotdagi nasibaning kamayishidir.

### Xulosa

Qarabalg’asun II bitigida badiiylikni shakllantirishda atroflicha tanlangan leksik birliklar, semantik konnotatsiyaga ega so’zlar va bu so’zlarning nozik ma’nolaridan ustalik bilan foydalana olish asosiy bitig qimmatini oshirgan. Matndagi lingvistik birliklarning ahamiyati haqida gapirganda an’anaviy muallif yoki qahramonning nasl-nasabini tanitishga harakat qilishni aytish lozim. Bu bitigtoshda *qunchuy buyuruqi* unvonlari matnda so’zlovchining jamiyatdagi maqomi, siyosiy-harbiy kuchini ifoda etish bilan birga unga epik ruh beradi va o’quvchida tarixiy vaziyat haqidagi tasavvurni uyg’otadi. Juft – dualistik obrazlar matnda asosiy badiiy kuch *kök täñiri – yayiz yär* qarama-qarshiligi orqali beriladi. Bu antiteza qayg’u va fojaviylikni oshirib, o’lim motivini taqdiriylilik bilan bog’laydi hamda semantik uyg’unlik yaratadi. Matnda metafora hodisasi qutum *yuyqa bolti* iborasi orqali voqelangan. Bunda *qut’ni* jisman *yuyqa* – “yuqa” bo’lish bilan ifodalash metaforik kuchga ega. Majoz esa *yolim qishya bolti* – “yo’lim qisqa bo’ldi” iborasida ko’zga tashlanadi. Bu – “o’limning yaqinlashishi”ni bildiradigan poetik evfemizm.

Yuqorida aytilganidek, “yo’l” hayot yo’lini anglatadi, “qisqarishi” esa taqdirning tez yakun topishini ko’rsatadi. Bu majozlar matnga ruhiy dramatism va falsafiylik beradi. Umumturk kishisi va bir qancha bitigtoshlar uchun xos bo’lgan harbiy burch ham unutilmaydi, muallif, avvalo, turk kishisi. Bitigda qo’riqqa oid so’zlar (*öñtäniğ tïdar ätim, kädinig iti ärür ärtim*) ko’zga tashlanib, bu birliklar qahramonning o’tmishini bildirish bilan birga uning jasorati, davlat uchun xizmatini epik kontekstda ochib beradi. Shuningdek, bitigda fe’llardagi ovoziy yaqinlik (*äritm / ätim / ärtim*), *takror (bolti / bolti)* hamda semantik juftliklar (*täñri – yär, qutum – yolim*) kabi til imkoniyatlaridan mohirona foydalanilgan.

Aytish mumkinki, Qarabalg'asun II bitigi matnining ikkinchi qismi (6-10-qatorlar)dagi tasvirni saj'dan ancha yuqori darajadagi badiiy hodisa, lekin hajman o'ta qisqa bo'lgani uchun liro-epik janr mahsuli bo'lmagan ilk o'rta asr turkiy adabiyotiga xos badiiy topilma sifatida qabul qilish mumkin. Muayyan tartibli tizim va hozirgi kunda she'riy shakl oldiga qo'yilgan talablarga to'la javob bermasa-da, ranglar va ikki qutb singari ilohiy tushunchalarni falsafiy maqsadiga bo'ysundira olgani holda, vositalarning badiiy ta'sirchan qo'llanishi bilan mazkur yodnoma o'z davri uchun adabiy muhim topilma namunasi bo'la oladi. Nafaqat matnning cho'qqisi bo'lgan ikkinchi qismda, balki ilk qatorlarda ham o'ziga xos parallelizm, qofiya va hukmning takrorlanishi – radif orqali nutqiy musiqa yaratilgan. Bu matnda yaxlit uyg'unlikni ta'minlab bergan. Eng muhimi, noma'lum muallif o'zi timsolida qadimgi turkiy kishisi, umuman, odam bolasining umr yo'lini (tug'ilish – umr – o'lim) *ko'k* (osmon) – beruvchi va *yag'iz* (qaro) yer – oluvchi ziddiyatidan tug'ilgan hayotiy bir butunlik shaklida dualistik tasvirda ochib bergan. Butun antiteza usulida yaratilgan ushbu bitigda matn so'ngida buqa o'g'il nomi (yoki epiteti)ning tilga olinishi matnga qahramonlik va totemik jumboqlilik bag'ishlashi bilan birga, quvvat, qudrat, kuch ramzini anglatib, hayot davomiyligini ham ifodalaydi.

*O'rduwaliq II (Xarbalgas // Qarabalg'asun II) bitigi.*



### Qisqartmalar

- BA – Bilga Atachim bitigi.  
BX – Bilga xoqon bitigi.  
DLT – “Devonu lug’otit turk”. Toshkent: 1960–1967.  
HO’AT – Hozirgi o’zbek adabiy tili.  
KT – Kul Tigin bitigi.  
MCh – Mo’yun Chor bitigi.  
OY – “Oltun yorug’”.  
O’TIL – O’zbek tilining izohli lug’ati.  
O’XSHL – O’zbek xalq shevalari lug’ati.  
O’TEL – O’zbek tilining etimologik lug’ati. I tom. Toshkent: 2000.  
O’TIL – O’zbek tilining izohli lug’ati. V tomlik. Toshkent: 2007.  
O’XShL – O’zbek xalq shevalari lug’ati. Toshkent: 1971.  
QB – “Qutadg’u bilig” asari:  
QBH, QBK – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig” S. Qohira nusxasi (Dāru’l-kutub va’l-vasāiki’l-kavmiyya tasavvuf turki 168. nr).  
QBN – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig” B. Namangan nusxasi (Farg’ona) (TDSHI qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo’lyozmalari markazi 1809).  
QBV – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig” A. Vena nusxasi (Wien, ÖNB, Cod A.F.13).  
QTT – Qadimgi turkiy til (G’Abdurahmonov va b. )  
s. – sug’dcha.  
sans. – sanskritcha.  
Ta – Taryat bitigtoshi.  
Tar – Taryat bitigtoshi.  
Tes – Tesiyn bitigtoshi.  
To’n – To’nyuquq bitigtoshi.  
xit. – xitoycha.  
Y – Yenisey bitiglari.  
ДТС – Древнетюркский словарь. – Л.:Наука, 1969.  
ҚТТ – Қадимги туркий тил. Абдурахмонов Ғ, Рустамов. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 103 б.  
ПДП – Памятники древнетюркской письменности. –Москва-Л, 1951.  
СИГТЯ – Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков.  
ТС – Тюркологический сборник.  
ЭСТЯ – Этимологический словарь тюркских языков.

### Adabiyotlar

- Абдурахмонов, А. “Туркий адабиётнинг қадимий қатламлари. 1-қисм. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/turkiy-adabiyotning-qadimiy-qatlamlari-birinchi-qism.html>  
Alimov, Rysbek. 2015. “II. Karabalgasun Yazıtı”, *Modern Türklük Araştırmaları Dergisi* Cilt 12(4). 27 – 38.  
Arat, Reşid Rahmeti. 1947. *Kutadgu Bilig Metin*. İstanbul: Millî Eğitim Basımevi



- Argunşah, Mustafa ve Güner, Galip 2015. *Codex Cumanicus*. Ankara: TDK Yayınları.
- Барфилд, Т. 2009. *Опасная граница: кочевые империи и Китай* (221 г. до н. э. – 1757 г. н. э.). 18 – 19. Пер. Д. В. Рхлядева, В.Б. Кузнецова; науч. ред. и пред. Д. В. Рхлядева. СПб.
- Barutcu, Özönder Sema. 2001. "Eski Türk Çağı Yazıtları: II. Kara Balgasun Yazıtı", *KÖK Sosyal ve Stratejik Araştırmaları Dergisi*, sayı III/1: 179 – 183.
- Bazilhan, N. 2005 *Kazakistan tarihiy tuwralı turki derekemeleri*, II tom. 152 – 193. Almatı: Dayk-Press.
- Бобоёров, Ғ. 2018. *Ғарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми*. Тошкент: Янги нашр.
- Bold, L. 2000. *Orhon Biçgiyn Dursgal I*, Ulaanbaatar: Mongol Ulsın Şinjele Uhaanı Akademi. 248 – 257.
- Bold, L. 2006. *Orhon Biçgiyn Dursgal II*, Ulaanbaatar: Mongol Ulsın Şinjele Uhaanı Akademi. 249 – 254.
- Bold, L., Tseveendorj D. 1990. *BNMAU-in Nutag Dah' Hadnı Biçees: Türeg Biçgiyn Dursgal*, Ulaanbaatar: Ulsın Hevleliyn Gasar. 126 – 127.
- Clauson, G. 1972. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. Oxford: Oxford University.
- DLT – Маҳмуд Кошғарий. 1960 – 1963. *Туркий сўзлар девони (Девону луғотит-турк)*. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I-III. Тошкент: Фан.
- Donuk, A. 1988. *Eski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler*. Istanbul.
- Dusmurodov, M. 2025. *O'rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi*. Toshkent: Lesson Press.
- DTS – *Древнетюркский словарь*. 1969. Под ред. В. М. Наделяева, Д.М.Насилова, Э. Р. Тенишева, А. М. Щербака. Л.: Наука.
- Eraslan, Kemal. 2012. *Eski Uygur Türkçesi Grameri*. Ankara: TDK Yayınları.
- Ercilasun, Ahmet Bican ve Akkoyunlu, Ziyat. 2014. *Kâşgarlı Mahmud Dîvânu Lugâti't-Türk (Giriş-Metin- Çeviri-Notlar-Dizin)*. Ankara: TDK Yayınları
- Erdal, M. 1991. *Old Turkic Word Formation. A Functional Approach to the Lexicon. Volume: I*. Wiesbaden.
- Gabain Annemarie von. 1956. "Inhalt und magische Bedeutung der alttürkischen Inschriften". *Anthropos*. 537 – 556.
- Giraud, R. 1999. *Göktürk İmparatorluğu* (çev. İ. Mangaltepe). Ankara: Ötüken Yay.
- Güler, E. 2025. Sağ Yönün Kavramsal Üstünlüğü ve Dile Yansıması: *Oñal-/Oñal- ve Sağal- Fiilleri Üzerine. Söylem Filoloji Dergisi* 10(2): 1259 – 1283.
- Gürgün, Hasan. 2025. Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları ve Karabalgasun-II Yazıtı'nın Formu. *Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi*, 13/42: 257 – 283.
- Hansen Olaf J. 1930. *Zur soghdischen Inschrift auf dem dreisprachigen Denkmal von Karabalgasun*, Suomalais-Ugrilainen Seura.

- Кононов, А. Н. 1975. "Семантика цветообозначений в тюркских языках". *Тюркологический сборник*, 61.
- Кормушин, И.В. 2008. Тюркские Енисейские эпитафии: грамматика, текстология. Москва: Наука.
- Li Y.-S. 2017. *Türk Dillerinde Akrabalık Adları*. Türk Dil Kurumu Yayınları. Ankara.
- Малов, С. Е. 1951. *Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования*. Москва: АН СССР.
- Mert, O. 2009. *Ötüken Uygur Dönemi Yazıtlarından Tes, Taryat, Şine Us*. 102 – 103. Ankara: Belen Yayıncılık.
- Moriyasu, T., Y. Yoshida, A. 1999. Katayama. Barugasun hibun [Karabalgasun Inscription], in *Mongorukoku genzon iseki, hibun chōsa kenkyū hōkoku* [Provisional Report of Researches on Historical Sites and Inscriptions in Mongolia from 1996 to 1998], ed. Takao Moriyasu and Ayudai Ochir (Тоюнэка: The Society of Central Eurasian Studies), 209 – 224.
- Тоғай Мурод. 2018. *Танланган асарлар: Романлар, қиссалар*. Тошкент.
- Мусулмонқулов, Р. 1970. *Саъж ва сайри тарихин он дар насри тожик*. Душанбе.
- Ölmez, M. 1999. Eski Türk Yazıtlarında Yabancı Ögeler (3), *Türk Dilleri Araştırmaları*, 59.
- Ölmez, M. 2012. *Orhon-Uygur Hanlığı Dönemi Moğolistan'daki Eski Türk Yazıtları*. 238 – 239. Metin-ÇeviriSözlük, Ankara: Bilgesu.
- Özyetgin, A. Melek. 2001. *Ebû Hayyân Kitâbu'l-İdrâk li Lisâni'l-Etrâk, Fiil: Tarihi-Karşılaştırmalı Bir Gramer ve Sözlük Denemesi*. Ankara: Köksav Yayınları.
- Osawa, T. 1999. "Qara Balgasun Inscription II." *Provisional Report of Researches on Historical Sites and Inscriptions in Mongolia from 1996 to 1998* (ed. Moriyasu, T., Ochir, A.), 143 – 145. Osaka.
- O'TIL – *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 2007. III. Тошкент: ЎЗМЭ.
- O'XSHL – *Ўзбек халқ шевалари луғати*. 1971. Тошкент: Фан.
- QBH, QBK – Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" S. Qohira nusxasi (Dâru'l-kutub va'l-vasâiki'l-kavmiyya tasavvuf turki 168. nr).
- QBN – Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" B. Namangan nusxasi (Farg'ona) (TDSHI qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo'lyozmalari markazi 1809).
- QBV – Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" A. Vena nusxasi (Wien, ÖNB, Cod A.F.13).
- Rasanen, M. 1969. *Versuci eines etymologiscien Wörterbucis der Turksprachen*. Lexiea Societatis Fenno-Ugricae, Helsinki.
- Roux Jean-Paul. 2002. *Türklerin ve Moğolları Eski Dini, (Çev.: Prof. Dr Aykut Kazancıgil), Kabalcı Yayınlan*. İstanbul.
- Schlegel, Gustaaf. 1896. *Die chinesische inschrift auf dem uigurischen denkmal in Kara Balgassun*, Helsingfors, Société finno-ougrienne.
- Sertkaya, O. F., Alyilmaz, C., Battulga, T. 2001. *Moğolistan'daki Türk Anıtları Projesi Albümü*. Ankara: TİKA Yayınları.
- Sertkaya, Osman Fikri. 1999. "Eski Türklerin Kağan Seçimi Üzerine Göktürk

- Yazıtlarındaki İki Ata Sözü". *İlmî Araştırmalar: Dil, Edebiyat, Tarih İncelemeleri*. S. 8: 233 – 240.
- Şirin, H. 2015. Bombogor Inscription: Tombstone of a Turkic Qunçuy ("Princess"). *Journal of the Royal Asiatic Society* 26(3):1 – 9.
- Şirin, H. 2015. *Kül Tigin yazıtı – notlar*. Bilge kültür sanat. İstanbul.
- Şirin, H. 2016. *Eski Türk Yazıtları Söz Varlığı İncelemesi*. TDK yayınları. Ankara.
- Tekin, Talat. 1988. *Orhon Yazıtları*, TDK Yayınları. Ankara.
- Tekin, T. 2000. *Orhon Türkçesi Grameri*. Ankara: Sanat Kitabevi.
- Tokyürek, Hacer. 2018. *Altun Yaruk Sudur IV. Tegzinç (Karşılaştırmalı Metin Yayını)*. Ankara: TDK Yayınları.
- Шинэхүү, М. 1979. "Новый памятник рунической письменности уйгурского Карабалгасуна". *Олон Улсын Монголч Эрдэмтний III их хурал, Боть-3, Улаанбаатар*, – X. 301 – 305.
- Шинэхүү, М. 1980. "Орхон-Сэлэнгийн руни бичгийн шинэ дурсгал". *Археологийн Судлал, Studio Archaeologica Instituti Historiae Academiae Scientiarum Reipublicae Populi Mongolici*. Tomus-8, Fasc. 1, Улаанбаатар, X. 42 – 43.

## **Karabalgasun II Inscription of the Uyghur Khaganate: Literary Function of Lexical Units**

Ma'rufjon Dustmurodov<sup>1</sup>

### **Abstract**

This article researches the historical, linguistic, and literary significance of the Second Karabalgasun inscription created during the Uyghur Khaganate. Along with the place of discovery, writing system, language and genre features of the monument, particular attention is paid to sentences that are structurally and stylistically close to poetic form, especially those based on the antithesis created through the contrast of ideas in the text. The article puts forward scholarly interpretations concerning the effective artistic representation of the state, the defense of the people and moral concepts reflected in the inscription, as well as human attitudes toward birth, life and death. In addition, the role of the inscription in the study of the lexicon and sentence structure of the ancient Turkic-Uyghur language are emphasized.

---

<sup>1</sup> *Ma'rufjon M. Dustmurodov* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor. Independent researcher at TSUOS.

**E-mail:** maruf\_dust@mail.ru

**ORCID:** 0009-0003-4954-9504

**For citation:** Dustmurodov, M. M. 2025. "Karabalgasun II inscription of the Uyghur Khaganate: literary function of lexical units". *Golden scripts* 4: 76 – 98.



**Key words:** *Turkic-runic inscriptions, Uyghur Khaganate, Karabalgasun II Inscription, epitaph, saj' (rhyme in prose), antithesis, ancient Turkic language.*

### References

- Abdurahmonov, A. "Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari. 1-qism. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/turkiy-adabiyotning-qadimiy-qatlamlari-birinchi-qism.html>
- Alimov, Rysbek. 2015. "II. Karabalgasun Yazıtı", *Modern Türklük Araştırmaları Dergisi* Cilt 12(4). 27 – 38.
- Arat, Reşid Rahmeti. 1947. *Kutadgu Bilig Metin*. İstanbul: Millî Eğitim Basımevi
- Argunşah, Mustafa ve Güner, Galip 2015. *Codex Cumanicus*. Ankara: TDK Yayınları.
- Barfield, T. 2009. *Opasnaya granitsa: kochevnye imperii i Kitay* (221 g. do n. e. – 1757 g. n. e.). 18 – 19. Per. D. V. Rxlyadeva, V.B. Kuznesova; nauch. red. i pred. D. V. Rxlyadeva. SPb.
- Barutcu, Özönder Sema. 2001. "Eski Türk Çağı Yazıtları: II. Kara Balgasun Yazıtı", *KÖK Sosyal ve Stratejik Araştırmaları Dergisi*, sayı III/1: 179 – 183.
- Bazilhan, N. 2005 *Kazakistan tarihyı tuwralı turki derektmeleri*, II tom. 152 – 193. Almatı: Dayk-Press.
- Boboyorov, G'. 2018. *G'arbiy Turk xoqonligi davlat tuzumi*. Toshkent: Yangi nashr.
- Bold, L. 2000. *Orhon Biçgiyn Dursgal I*, Ulaanbaatar: Mongol Ulsın Şinjele Uhaanı Akademi. 248 – 257.
- Bold, L. 2006. *Orhon Biçgiyn Dursgal II*, Ulaanbaatar: Mongol Ulsın Şinjele Uhaanı Akademi. 249 – 254.
- Bold, L., Tseveendorj D. 1990. *BNMAU-ın Nutag Dah' Hadnı Biçees: Türeg Biçgiyn Dursgal*, Ulaanbaatar: Ulsın Hevleliyn Gasar. 126 – 127.
- Clauson, G. 1972. *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*. Oxford: Oxford University.
- DLT – Mahmud Koshg'ariy. 1960 – 1963. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit-turk)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. I-III. Toshkent: Fan.
- Donuk, A. 1988. *Eski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler*. İstanbul.
- Dusmurodov, M. 2025. *O'rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi*. Toshkent: Lesson Press.
- DTS – *Drevnetyurkskiy slovar*. 1969. Pod red. V. M. Nadelyaeva, D.M.Nasilova, E. R. Tenisheva, A. M. Şıerbaka. L.: Nauka.
- Eraslan, Kemal. 2012. *Eski Uyghur Türkçesi Grameri*. Ankara: TDK Yayınları.
- Ercilasun, Ahmet Bican ve Akkoyunlu, Ziyat. 2014. *Kâşgarlı Mahmud Dîvânı Lugâti't-Türk (Giriş-Metin- Çeviri-Notlar-Dizin)*. Ankara: TDK Yayınları
- Erdal, M. 1991. *Old Turkic Word Formation. A Functional Approach to the*

- Lexicon. Volume: I. – Wiesbaden.
- Gabain Annemarie von. 1956. "Inhalt und magische Bedeutung der alttürkischen Inschriften". *Anthropos*. 537 – 556.
- Giraud, R. 1999. Göktürk İmparatorluğu (çev. İ. Mangaltepe). Ankara: Ötüken Yay.
- Güler, E. 2025. Sağ Yönün Kavramsal Üstünlüğü ve Dile Yansıması: *Oñul-/Oñal- ve Sağal-* Fiilleri Üzerine. *Söylem Filoloji Dergisi* 10(2): 1259 – 1283.
- Gürgün, Hasan. 2025. Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları ve Karabalgasun-II Yazıtı'nın Formu. *Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi*, 13/42: 257 – 283.
- Hansen Olaf J. 1930. *Zur soghdischen Inschrift auf dem dreisprachigen Denkmal von Karabalgasun*, Suomalais-Ugrilainen Seura.
- Kononov, A. N. 1975. "Semantika svetooboznacheniy v tyurkskix yazыkax". *Tyurkologicheskij sbornik*, 61.
- Kormushin, I.V. 2008. Tyurkskie Yeniseyskie epitafii: grammatika, tekstologiya. Moskva: Nauka.
- Li Y.-S. 2017. *Türk Dillerinde Akrabalık Adları*. Türk Dil Kurumu Yayınları. Ankara.
- Malov, S. Ye. 1951. *Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. Teksty i issledovaniya*. Moskva: AN SSSR.
- Mert, O. 2009. *Ötüken Uygur Dönemi Yazıtlarından Tes, Taryat, Şine Us*. 102 – 103. Ankara: Belen Yayıncılık.
- Moriyasu, T., Y. Yoshida, A. 1999. Katayama. Barugasun hibun [Karabalgasun Inscription], in *Mongorukoku genzon iseki, hibun chōsa kenkyū hōkoku* [Provisional Report of Researches on Historical Sites and Inscriptions in Mongolia from 1996 to 1998], ed. Takao Moriyasu and Ayudai Ochir (Toyonaka: The Society of Central Eurasian Studies), 209 – 224.
- Tog'ay Murod. 2018. *Tanlangan asarlar: Romanlar, qissalar*. Toshkent.
- Musulmonqulov, R. 1970. *Sa'j va sayri tarixin on dar nasri tojik*. Dushanbe.
- Ölmez, M. 1999. Eski Türk Yazıtlarında Yabancı Öğeler (3), *Türk Dilleri Araştırmaları*, 59.
- Ölmez, M. 2012. *Orhon-Uygur Hanlığı Dönemi Moğolistan'daki Eski Türk Yazıtları*. 238 – 239. Metin-ÇeviriSözlük, Ankara: Bilgesu.
- Özyetgin, A. Melek. 2001. *Ebû Hayyân Kitâbu'l-İdrâk li Lisâni'l-Etrâk, Fil: Tarihî-Karşılaştırmalı Bir Gramer ve Sözlük Denemesi*. Ankara: Köksav Yayınları.
- Osawa, T. 1999. "Qara Balgasun Inscription II." *Provisional Report of Researches on Historical Sites and Inscriptions in Mongolia from 1996 to 1998* (ed. Moriyasu, T., Ochir, A.), 143 – 145. Osaka.
- O'TIL – *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 2007. III. Toshkent: O'zME.
- O'XSHL – *O'zbek xalq shevalari lug'ati*. 1971. Toshkent: Fan.
- QBH, QBK – Yusuf Xos Hojib. "*Qutadg'u bilig*" S. Qohira nusxasi (Dâru'l-kutub va'l-vasâiki'l-kavmiyya tasavvuf turki 168. nr).
- QBN – Yusuf Xos Hojib. "*Qutadg'u bilig*" B. Namangan nusxasi (Farg'ona) (TDSHI qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo'lyozmalari markazi 1809).

- QBV – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig” A. Vena nusxasi (Wien, ÖNB, Cod A.F.13).
- Rasanen, M. 1969. *Versuci eines etymologiscien Wörterbucis der Turksprachen*. Lexiea Societatis Fenno-Ugricae, Helsinki.
- Roux Jean-Paul. 2002. *Türklerin ve Moğolları Eski Dini*, (Çev.: Prof. Dr Aykut Kazancıgil), *Kabalıcı Yayınları*. İstanbul.
- Schlegel, Gustaaf. 1896. *Die chinesische inschrift auf dem uigurischen denkmal in Kara Balgassun*, Helsingfors, Société finno-ougrienne.
- Sertkaya, O. F., Alyılmaz, C., Battulga, T. 2001. *Moğolistan’daki Türk Anıtları Projesi Albümü*. Ankara: TİKA Yayınları.
- Sertkaya, Osman Fikri. 1999. “Eski Türklerin Kağan Seçimi Üzerine Göktürk Yazıtlarındaki İki Ata Sözü”. *İlmî Araştırmalar: Dil, Edebiyat, Tarih İncelemeleri*. S. 8: 233 – 240.
- Şirin, H. 2015. Bombogor Inscription: Tombstone of a Turkic Qunçuy (“Princess”). *Journal of the Royal Asiatic Society* 26(3):1 – 9.
- Şirin, H. 2015. *Kül Tigin yazıtı – notlar*. Bilge kültür sanat. İstanbul.
- Şirin, H. 2016. *Eski Türk Yazıtları Söz Varlığı İncelemesi*. TDK yayınları. Ankara.
- Tekin, Talat. 1988. *Orhon Yazıtları*, TDK Yayınları. Ankara.
- Tekin, T. 2000. *Orhon Türkçesi Grameri*. Ankara: Sanat Kitabevi.
- Tokyürek, Hacer. 2018. *Altun Yaruk Sudur IV. Tegziñç (Karşılaştırmalı Metin Yayını)*. Ankara: TDK Yayınları.
- Shinexyy, M. 1979. “Noviy pamyatnik runicheskoy pismennosti uygurskogo Karabalgasuna”. *Olon Ulsyn Mongolch Erdemtniy III ix xural, Bot-3, Ulaanbaatar*, X. 301 – 305.
- Shinexyy, M. 1980. “Orxon-Selengiyn runi bichgiyn shine dursgal”. *Arxeologiyn Sudlal, Studio Archaeologica Instituti Historiae Academiae Scientiarum Reipublicae Populi Mongolici*. Tomus-8, Fasc. 1, Ulaanbaatar, X. 42 – 43.